O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# AHOLINING SOG‘LOM OVQATLANISHINI TA’MINLASH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

**[Ko‘chirma]**

Respublikamizda sog‘liqni saqlash hamda jismoniy tarbiya va sport sohalarini isloh qilish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu tizimlarni takomillashtirish barobarida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga mazkur sohada davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ahamiyat qaratilmoqda.

Jumladan, 2025-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, 2022-yilga qadar yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish konsepsiyalari hamda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlandi va ijroga qaratildi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me’yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan taom va shirinliklarni me’yoridan ortiq iste’mol qilish, shuningdek yetarli darajada vitamin va minerallar iste’mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o‘sish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o‘sma kabi insonning erta o‘limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi oqibatlaridan olingan saboqlar kasallikning og‘irligi va o‘lim holatlarining katta qismi noto‘g‘ri turmush tarzi tufayli kelib chiqadigan yo‘ldosh kasalliklar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Aholining sog‘lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta’minlashda davlat siyosatini yanada mustahkamlash, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish, har bir fuqaroda sog‘lom ovqatlanish va jismoniy faollik madaniyatini shakllantirish maqsadida:

1. Aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

a) 2021-yil 1-iyundan boshlab:

6 — 23 oylik bolalar uchun uy sharoitida tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida mikronutriyent kukuni bilan;

6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar “A” vitamini bilan;

2 — 10 yoshdagi bolalar gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta’minlanadi;

b) 2022-yil 1-iyuldan boshlab:

homilador va bola emizuvchi ayollar hamda 3 — 15 yoshdagi bolalar yod preparati bilan;

35 yoshgacha tug‘ish yoshidagi ayollar temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta’minlanadi;

v) 2021-yil 1-apreldan boshlab birinchi nav bug‘doy uni bilan bir qatorda oliy nav bug‘doy uni mikronutriyentlar bilan boyitilgan taqdirda respublika hududida realizatsiya qilishga ruxsat etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PF-98-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.04.2022-y., 06/22/98/0279-son)*

3. Bolalarning 5 yoshgacha bo‘lgan davrda optimal rivojlanishi va o‘sishini ta’minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi patronajning universal-progressiv modeli 2022-yil 1-yanvarga qadar bosqichma-bosqich joriy etilsin:

homilador va tug‘ruqdan keyingi davrdagi ayollar hamda 5 yoshgacha bolalari mavjud oilalar uchun amaldagi shtatlar doirasida alohida patronaj hamshirasini biriktirish;

ushbu patronaj hamshirasi tomonidan umumiy holati qoniqarli va xavf guruhidagi aholini aniqlash hamda ular sog‘lig‘ining umumiy holatini differensiallashgan yondashuv asosida kuzatib borish;

umumiy holati qoniqarli bo‘lgan barcha homilador va tug‘ruqdan keyingi davrdagi ayollar hamda 5 yoshgacha bolalari mavjud oilalarni yagona me’yor asosida bevosita kuzatish;

ruhiy tushkunlik holati, bolaning to‘g‘ri ovqatlanishi va rivojlanishi uchun sog‘lom muhitni ta’minlashda qiyinchiliklari mavjud xavf guruhidagi homilador va tug‘ruqdan keyingi davrdagi ayollar hamda 5 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarning har biriga individual reja asosida kengaytirilgan yordam ko‘rsatish.

4. Sirdaryo viloyatining tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida 2021-yil 1-yanvardan boshlab eksperiment tariqasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlaridan iborat “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” xonalari tashkil etilsin.

Belgilansinki, “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” xonalari:

aholiga to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lom turmush tarzi va jismoniy faollik masalalarida yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boradi;

respublika budjetidan Sog‘liqni saqlash vazirligiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan zarur moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanadi;

Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tuman (shahar) bo‘linmalari shtatlarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga shakllantiriladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi (E.I. Basitxanova) Moliya vazirligi (J.I. Abruyev) bilan birgalikda 2022-yil 1-iyulga qadar eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilib, uni respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

5. Markaz, Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiy xodimlari uchun diyetologiya bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini, aholi uchun ovqatlanish bo‘yicha maslahatchi tayyorlash kurslarini tashkil etish vakolati berilsin.

6. Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutiga qo‘shimcha ravishda sog‘lom va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari xomashyosining asosiy turlarini kengaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini mikronutriyentlar bilan boyitish, aholining yoshi, jinsi, fiziologik holati, kasbi va kasalliklaridan kelib chiqqan holda sog‘lom va parhezli ovqatlanish hamda profilaktik tibbiyot masalalari bo‘yicha canitariya qoidalari va me’yorlarini tayyorlash, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari yuklatilsin.

Ilmiy-tadqiqot instituti (O‘.X. Adilov):

2021-yil 1-fevralga qadar Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari asosida diyetolog mutaxassislar va ovqatlanish bo‘yicha maslahatchilarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini tayyorlasin;

2021-yil 1-mayga qadar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti bilan birgalikda aholining yoshi, jinsi, fiziologik holati va kasbiga ko‘ra guruhlari uchun tavsiya etiladigan o‘rtacha kunlik ovqatlanish me’yorlari hamda jismoniy mashqlar kompleksini ishlab chiqsin.

7. Markaz (B.T. Odilova) targ‘ibot ishlarini taniqli madaniyat vakillari va sportchilarni jalb qilgan holda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda videorolik shaklida, aholi orasida infografik tarqatma materiallardan foydalangan holda olib borish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin. Bunda, ayniqsa, noto‘g‘ri ovqatlanish va kam harakatlanishning inson salomatligiga salbiy ta’siri, xususan buning oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar va ularning asoratlari hamda kasalliklar profilaktikasi va uni davolashda meva va sabzavotlarning xususiyatlari, jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishning inson salomatligiga foydasini yoritishga alohida e’tibor qaratsin.

*Oldingi tahririga qarang.*

Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.I. Ikramov), Madaniyat va turizm vazirligi (O.A. Nazarbekov) ushbu bandda nazarda tutilgan

chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirishda Markazga yaqindan ko‘maklashsin.

*(7-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)*

8. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov, J.I. Abruyev) 2021-yildan boshlab to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini, jumladan aholi va tibbiyot xodimlari uchun tarqatma materiallarni tayyorlash hamda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlarni moliyalashtirish uchun Sog‘liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga ko‘ra Davlat budjetidan mablag‘lar ajratsin.

Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Y. Abduraxmonov) ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, xususan sog‘lom ovqatlanish masalalari bo‘yicha muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy loyihalarning tanlovlar asosida shakllantirilishini ta’minlasin.

9. Belgilansinki, 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Shaxsiy gigiyena va jismoniy tarbiya asoslari” mashg‘ulotlari o‘tkaziladi;

respublika umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv darslarini qayta ko‘rib chiqqan holda 1 — 4-sinflar uchun “Tarbiya” va “Atrofimizdagi olam” fanlari, yuqori sinflar uchun “Biologiya” fani tarkibida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha “Salomatlik saboqlari” mavzulari kiritiladi;

akademik litsey, professional va oliy ta’lim muassasalarining “Jismoniy tarbiya” fani doirasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;

tibbiyot texnikumlarida valeolog, diyetolog, nutritsiolog mutaxassisliklarini tayyorlash, nutritsiolog va diyetolog magistratura (internatura, klinik ordinatura) mutaxassisliklarini 1 yillik o‘quv dasturlari asosida tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat, klinik ordinatura, magistratura, tibbiyot kollejlari va Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarining barcha yo‘nalishlarida to‘g‘ri ovqatlanish mavzulari alohida siklda o‘qitiladi;

barcha mutaxassisliklar bo‘yicha vrach va o‘rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha fan dasturlariga “Sog‘lom turmush tarzi va to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari” mavzulari kiritiladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Sh. Inoyatov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda mazkur bandda nazarda tutilgan o‘quv mashg‘ulotlarini Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari asosida ishlab chiqsin.

10. Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Sh. Inoyatov) hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (R.S. Irmatov):

a) uch oy muddatda malaka oshirish va seminar-mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan joy hamda ularni moliyalashtirish manbalarini aniq ko‘rsatgan holda quyidagi dasturlarni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

*Oldingi tahrirga qarang.*

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari, jumladan ko‘p tarmoqli va oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokor punktlarida faoliyat yurituvchi vrach va o‘rta tibbiyot xodimlarini diyetologiyani chuqurlashtirib o‘rgatgan holda valeologiya bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish;

*(10-band “a” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi PF-78-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

oilaviy shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlarini Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga asosan yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha katta yoshdagi aholiga maslahatlar berish yuzasidan o‘qitish;

*(10-band “a” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi PF-78-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son)*

davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga xodimlari hamda dekretiv guruh vakillari uchun to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lom turmush tarzi va sanitar-gigiyenik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha seminar-mashg‘ulotlar o‘tkazish;

“Salomatlik yo‘laklari”da davlat organlari va tashkilotlarining xodimlarini jalb etgan holda piyoda va velosipedda yurish bo‘yicha marafonlar va sport musobaqalarini o‘tkazish;

b) 2021-yil 1-oktabrga qadar Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha tavsiyalari asosida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga oid diagnostika (davolash) standartlari va klinik protokol (qo‘llanma)larni qayta tasdiqlasin;

v) 2022-yil 1-yanvarga qadar mahallalar kesimida yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bo‘yicha “aholining salomatlik profili”ni yaratsin va uni o‘z rasmiy veb-saytida e’lon qilib borsin. Bunda, aholining ovqatlanish xarakteri, tana vazni indeksi, alkogolli ichimlik va tamakiga qaramlilikning mavjudligi, arterial bosim, qondagi qand miqdori va xolesterin darajasi kabi ko‘rsatkichlarning qamrab olinishini nazarda tutsin.

11. Belgilansinki, oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar bilan tamg‘alash quyidagi tartibda ikki bosqichda joriy etiladi:

a) 2021-yil 1-iyuldan boshlab:

oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;

xavfsizlik belgisi bilan tamg‘alangan oziq-ovqat mahsulotlarining reklamasi imtiyozli tariflar asosida tarqatiladi (joylashtiriladi);

ta’lim, sport va tibbiyot muassasalarida xavfsizlik belgisi bilan tamg‘alanmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga yo‘l qo‘yilmaydi hamda bunday mahsulotlarni realizatsiya qilish savdo qoidalarini buzish sifatida baholanadi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab respublika hududida realizatsiya qilish uchun olib kiriladigan va mahalliy ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari ularning inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar bilan majburiy tartibda tamg‘alanadi.

Bunda, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdorini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini belgilash davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

12. Quyidagilar:

2020 — 2025-yillarda aholida sog‘lom ovqatlanish odatini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2020 — 2025-yillarda aholida sog‘lom ovqatlanish odatini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish samaradorligini aniqlash indikatorlari 2-ilovaga muvofiq;

2021 — 2023-yillarda qabul qilinadigan oziq-ovqat sanoati sohasidagi xalqaro standartlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

2021 — 2023-yillarda qayta ko‘rib chiqiladigan oziq-ovqat xavfsizligiga oid canitariya qoidalari va me’yorlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

mazkur qarorning alohida bandlari ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha harakatlar rejasi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. Sog‘liqni saqlash vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va “O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvardan boshlab oziq-ovqat mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari milliy standart va me’yorlarga muvofiqligini hamda

mahsulot oʻramidagi maʼlumotlarning toʻgʻriligini xolis oʻrganuvchi “Sifat nazorati” televizion koʻrsatuvi namoyish etib borilishini taʼminlasin;

*(14-bandning ikkinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi, “Oʻzstandart” agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda “Oziq-ovqat mahsulotlari sifat haftaligi” tadbirini 2021-yildan boshlab har yili noyabr oyida oʻtkazishni yoʻlga qoʻysin.

*(14-bandning uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son)*

15. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3818-son qaroriga 1-ilovaning rus tilidagi matni quyidagi mazmundagi “2106 90 980 3” pozitsiya bilan toʻldirilsin:

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| “ | 2106909803 | Mikronutriyenti dlya obogoщeniya muki | 0 | ”. |

16. Sogʻliqni saqlash vazirligi bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga masʼul va shaxsiy javobgar etib sogʻliqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, vazir oʻrinbosari E.I. Basitxanova, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshligʻi B.Q. Yusupaliyev va Markaz direktori B.T. Odilova belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun masʼul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi oʻrinbosari L.N. Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 10-noyabr,
PQ-4887-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-son qaroriga
1-ILOVA

## 2020 — 2025-yillarda aholida sogʻlom ovqatlanish odatini shakllantirish boʻyicha
CHORA-TADBIRLAR DASTURI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro mud dati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda xalqaro me’yorlar va standartlarni implementatsiya qilish** | | | | | | |
| 1. | Tayyor va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari retsepturasini o‘zgartirish, shuningdek davolash va ta’lim muassasalarida, ish joylarida natriyni past miqdorda taqdim etish orqali aholi tomonidan tuz iste’molini kamaytirish. | 2021 — 2025-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Qishloq xo‘jaligi vazirligi (*J. Xodjayev*), “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Chora-tadbirlar dasturi |
| 2. | Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi bo‘yicha amaldagi canitariya qoidalari va me’yorlarini hamda davlat standartlarini va texnik reglamentlarni BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (keyingi o‘rinlarda — JSST)ning tavsiyalari va Alimentarius Kodeksi normalariga muvofiqlashtirish. | 2021 — 2023-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), Qishloq xo‘jaligi vazirligi (*J. Xodjayev*), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (*A. Ortiqov*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Davlat standartlari, texnik reglamentlar, canitariya qoidalari va me’yorlari |
| 3. | Chakana savdo shoxobchalarida xalq iste’moli tovarlari nazorat xaridini amalga oshirish va tovar (ish, xizmat)larni ekspertizadan (laboratoriya | 2020-yil noyabr | — | — | Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi (*N. Sharipov*), Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi |

| T/r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalash tirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | sinovlaridan) o‘tkazish tartiblarini ishlab chiqish. | | | | manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (*D. Kasimov*) | |
| 4. | “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish. | 2020-yil dekabr | — | — | Vazirlar Mahkamasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi (*N. Sharipov*) | Qonun loyihasi |
| 5. | Oliy nav bug‘doy unini vitamin va mikronutriyentlar bilan boyitish bo‘yicha davlat standarti va texnik reglamentni tasdiqlash hamda unni boyitish davlat dasturiga o‘zgartirish kiritish.<br><br>Shuningdek, un mikronutriyentlar bilan boyitilgan taqdirda import qilishga ruxsat berish tartibini o‘rnatish. | 2021-yil yanvar | — | — | “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), “O‘zdonmahsulot” AK (*F. Pulatov*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | Davlat standarti va texnik reglament |
| 6. | Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini takomillashtirish, jumladan unga yuqori malakali va ilmiy salohiyatli kadrlarni jalb etish, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalar, vivariy va sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha yangi klinika tashkil etish. | 2021-yil yanvar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (*B. Yusupaliyev*) | Ijrochilar qarorlari, zarur hollarda, normativ-huquqiy hujjat loyihasi |
| 7. | Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar indikatorlarini va reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalar ovqatlanishidagi muammolarni kuzatish imkoniyatini beruvchi statistik hisobotlarning davlat va idoraviy shakllarini qayta ko‘rib chiqish. | 2021-yil I chorak | — | — | Davlat statistika qo‘mitasi (*B. Begalov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish | Statistik hisobotlar |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | vazirligi (*A. Ortiqov*) | |
| 8. | JSSTning tavsiyalari asosida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini belgilovchi me’yorlarni ishlab chiqish. | 2021-yil 1-mart | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | Texnik reglament, canitariya qoidalari va me’yorlari |
| 9. | Respublika hududida realizatsiya qilish uchun olib kiriladigan va mahalliy ishlab chiqariladigan ozi?-ovqat mahsulotlarini tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori inson sog‘lig‘i uchun foyda yoki zararli ekanligini hisobga olgan holda tamg‘alash bo‘yicha “Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish. | 2021-yil 1-mart | — | — | “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (*A. Ortiqov*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi |
| 1 | Aholi orasida yod tanqisligining ommaviy profilakti�asini amalga oshirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini yod bilan boyitish bo‘yicha joriy etilgan davlat standartlari va texnik reglamentlarni takomillashtirish. | 2021-yil II chorak | — | — | “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | Davlat standartlari va texnik reglamentlar |
| 1 | JSSTning tavsiyalariga asosan bolalarga qaratilgan | 2021-yil | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), | Ijrochilar qarori |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar marketingini tartibga solish. | III chorak | | | Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi (*N. Sharipov*), YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | |
| 1 | Biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarish va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini takomillashtirish. | 2022-yil<br><br>I chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*) | Ijrochilar qarori |
| 1 | Raqamli va chakana savdo muhitida bolalar va o‘smirlar uchun tuz, qand va yog‘ miqdori belgilangan me’yorlardan yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va kuchli gazlangan, rangli, shirin hamda energetik ichimliklarning marketingini tartibga solish. | 2022-yil<br><br>II chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi (*N. Sharipov*), Savdo-sanoat palatasi (*A. Ikramov*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi |
| 1 | Sog‘lom, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz me’yor doirasidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dastur ishlab chiqish. | 2022-yil<br><br>III chorak | — | — | Qishloq xo‘jaligi vazirligi (*J. Xodjayev*), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Ijrochilar qarori, zarur hollarda, normativ-huquqiy hujjat loyihasi |
| **II. Noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liq kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni kamaytirish bo‘yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish** | | | | | | |

| T/r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | JSSTning xavfsiz ovqatlanishni ta’minlash bo‘yicha “besh kalit dasturi”ni targ‘ib qilish. | 2020 — 2025-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov),* Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi *(B. Musayev),* Yoshlar siyosati va sport vazirligi *(A. Ikramov),* Yoshlar ishlari agentligi (*A. Sagdullayev*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Amaliy chora-tadbirlar |
| 1 | Ota-onalar va bolalar uchun interfaol usulda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha “Sog‘lom ovqatlanaylik” turkum ko‘rsatuvlarini tayyorlash va tizimli ravishda efirga uzatish. | 2021-yil yanvardan boshlab doimiy | — | — | MTRK (*A. Xadjayev*), Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov),* Yoshlar siyosati va sport vazirligi *(A. Ikramov),* nodavlat telekompaniyalar (*kelishuv asosida*) | Teleko‘rsatuv |
| 1 | Aholining yosh, jins, fiziologik holat va kasb bo‘yicha turli guruhlari uchun ovqatlanishning maqbul me’yorlarini ishlab chiqish. | 2021-yil 1-mart | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | Ijrochilar qarorlari |
| 1 | Aholini qarorning 1-bandida nazarda tutilgan vitamin va minerallar bilan bepul ta’minlash | 2021-yil 15-fevral | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Moliya vazirligi | Hukumat qarori |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro mud dati | Mablag‘ miqdori | Moliyalash tirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish. | | | | (*T. Ishmetov*), JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonalari (*kelishuv asosida*) | |
| 1 | Quyidagilarni amalga oshirish:<br><br>6 — 23 oylik bolalar uchun uy sharoitida tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida mikronutriyent kukuni bilan;<br><br>6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarni “A” vitamini bilan;<br><br>2 — 10 yoshli bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar bilan;<br><br>homilador va bola emizuvchi ayollar hamda 3 — 15 yoshdagi bolalarni yod preparati bilan;<br><br>35 yoshgacha tug‘ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi preparati bilan bepulta’minlash. Bunda, 35 yoshgacha bo‘lgan homilador va bola emizuvchi ayollarni alohida me’yor asosida ta’minlash. | 2021-yil 1-iyundan boshlab doimiy<br><br>2022-yil 1-iyuldan boshlab doimiy | Hisob-kitoblar asosida | Budjet mablag‘lari, grantlar | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Maktabgacha ta’lim vazirligi (*A. Shin*), Xalq ta’limi vazirligi (*Sh. Shermatov*), Moliya vazirligi (*T. Ishmetov*), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, JSST va YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolanxonalari (*kelishuv asosida*) | Amaliy chora-tadbirlar |
| 2 | Noqulay mehnat sharoiti ishlarida band bo‘lgan ishchilar uchun profilaktik | 2021-yil II chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Mehnat va | Ijrochilar qarorlari |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro mud dati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ovqatlantirish normalarini ishlab chiqish. | | | | bandlik munosabatlari vazirligi (*N. Xusanov*) | |
| 2 | Tibbiyot muassasalarida bemorlar uchun mo‘ljallangan ovqatlanish me’yor va taomnomalarini, jumladan parhez taomlarini qayta ko‘rib chiqish. | 2021-yil II chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Moliya vazirligi (*T. Ishmetov*) | Ijrochilar qarorlari |
| 2 | Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining sog‘lom va xavfsiz ovqatlanish tizimini takomillashtirish.<br><br>Xususan, maktab oshxonalarini sanitariya qoidalari, me’yorlari va gigiyena normativlari talablariga mos holatga keltirish, taomlar sifati va xavfsizligini nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish. | 2021-yil<br><br>II chorak | — | — | Xalq ta’limi vazirligi(*Sh. Shermatov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*) | Normativ-huquqiy hujjat |
| 2 | Umumiy ovqatlanish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida band bo‘lgan mutaxassislar uchun sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish. | 2021-yil III chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Savdo-sanoat palatasi (*A. Ikramov*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Targ‘ibot materiallari |
| 2 | Noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liq kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha laboratoriya test sinovlari standartlarini qayta ko‘rib chiq�sh.<br><br>Laboratoriya test sinovlari standartlari | 2021-yil III chorak<br><br>2021-2022-yillar | Hisob-kitoblar asosida | Sog‘liqni saqlash vazirligi uchun ajratilgan budjet mablag‘lari, mahalliy budjet | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Amaliy chora-tadbirlar |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalash tirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari laboratoriyalarini zarur uskuna, sarf materiallari va reaktivlar bilan ta’minlash. | | | mablag‘lari, grantlar | | |
| 2 | Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga oid diagnostika va davolash standartlari hamda klinik qo‘llanma va protokollarni to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha JSSTning tavsiyalari asosida qayta tasdiqlash. | 2021-yil III chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (*D. Nabiyev*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Davolash va diagnostika standartlari hamda klinik protokollar |
| 2 | Respublika bo‘yicha patronajning universal progressiv modelini ishlab chiqish yo‘li bilan homilador ayollar va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ota-onalariga ovqatlanish masalalari bo‘yicha maslahat berib borish tizimini yaratish. | 2021-yil yanvar — dekabr | 1 mln. AQSh doll. | YUNISEF mablag‘lari (*kelishuv asosida*) | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Universal progressiv modelni amaliyotga joriy etish |
| 2 | Aholi, xususan bolalar uchun mahalliy meva, sabzavot va boshqa xomashyolar asosida ilmiy asoslangan oziq-ovqat va ichimliklar retsepturalarini ishlab chiqish. | 2022-yil II chorak | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Innovatsion rivojlanish vazirligi (*I. Abduraxmonov*), “O‘zstandart” agentligi (*D. Sattarov*) | Retsepturalar ishlab chiqish |
| **III. Ovqatlanish gigiyenasi va uning nutritsiologiya, diyetologiya kabi yo‘nalishlarida kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish hamda sog‘lom ovqatlanishni shakllantirish sohasida ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash** | | | | | | |

| T /r | Tadbirlar nomi | Ijro mud dati | Mablag‘ miqdori | Moliyalash tirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining tibbiy xodimlarini JSSTning tavsiyalariga ko‘ra yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga chalingan bemorlarni o‘zlarini parvarishlash va o‘z salomatligini nazorat qilishga o‘rgatish bo‘yicha o‘qitish. | 2021 — 2025-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov),* Yoshlar siyosati va sport vazirligi *(A. Ikramov),* JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Amaliy chora-tadbirlar |
| 2 | Homilador, emizikli onalar va 2 yoshgacha bolalarning sog‘lom ovqatlanishiga oid JSSTning “Birinchi 1000 kunlik” dasturi asosida shifokor va hamshiralar malakasini oshirish. | 2021 — 2025-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Amaliy chora-tadbirlar |
| 3 | Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida JSSTning tavsiyalariga ko‘ra 40 va undan katta yoshdagi fuqarolarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning xavf omillarini aniqlash. | 2021 — 2025-yillar | — | — | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*kelishuv asosida*) | Amaliy chora-tadbirlar |
| 3 | Keng turdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali respublika aholisining turmush tarzi, ovqatlanishi va yondosh kasalliklariga bog‘liq holatda ularning metabolomikasini o‘rganish. | 2021-2022-yillar | Hisob-kitoblar asosida | Tanlov natijalariga ko‘ra ajratiladigan mablag‘lar | Innovatsion rivojlanish vazirligi (*I. Abduraxmonov*), Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (*D. Nabiyev*), ilmiy-tadqiqot institutlari | Ilmiy-tadqiqot ishlari |
| 3 | Tibbiyot ta’limi tizimida ayol va bolalarning ovqatlanishi bo‘yicha o‘quv | 2020/2021 o‘quv yilidan | 50 ming AQSh doll. | YUNISEF mablag‘lari (*kelishuv asosida*) | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), | O‘quv dasturlari |

| T/r | Tadbirlar nomi | Ijro muddati | Mablag‘ miqdori | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar | Ijro mexanizmi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | dasturlarini qayta ko‘rib chiqish.<br><br>Oilaviy shifokor, pediatr, bolalar tor mutaxassislari, akusher-ginekolog, diyetolog va nutritsiologlar tayyorlash dasturlariga reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar, bolalar va o‘smirlarning to‘g‘ri ovqatlanishi mavzusini kiritish. | boshlab | | | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (*I. Madjidov*), YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi (*ke�ishuv asosida*) | |
| 3 | Davlat muassasa va tashkilotlarida diyetologiya mutaxassisini jalb qilgan holda tizimli ravishda to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha seminar-mashg‘ulotlar o‘tkazib borish. | 2021-yildan boshlab doimiy | — | Ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), davlat muassasa va tashkilotlari | Seminar mashg‘ulotlari |
| 3 | Dekretiv kontingent vakillari uchun sog‘lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkillashtirish va tizimli ravishda amalga oshirish. | 2021-yildan boshlab doimiy | — | Ijrochilarning mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi (*A. Xadjibayev*), muassasa va tashkilotlar | Seminar mashg‘ulotlari |
